Yo'l harakati xavfsizligi va uni maktabgacha ta'limda o'ziga xos xususiyatlarining ilmiy-metodologik asoslari	1952
<i>Jumayev Yunus Rashidovich</i>	
Maktabgacha ta'limda ekologik tarbiya berish jarayonidagi innovatsion yondashuvlar.....	1959
<i>Sayfullayev G'ulom Maxmudovich, Jurayeva Iroda Botirovna</i>	
An'anaviy laboratoriya mashg'ulotini o'tkazish metodikasi	1964
<i>Karimov Ilhom Normamatovich</i>	
Globalashuv sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish	1969
<i>Karimov Ravshanbek Rizomatovich</i>	
Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarning sensor etalonlarini shakllantirishning ahamiyati.....	1973
<i>Kayumova Dilnoza Patxulla qizi</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	<p>Fizika fanini o'qitishda o'quvchilarning epistemik faolligini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi..... 1978 Madumarov Shodonbek Az'amjonovich</p> <p>Chet tilini o'qitishda dars rejalashtirish modellarining qiyosiy tahlili..... 1982 Mahkamova Dilshoda Shuhrat qizi</p> <p>Yoshlar o'rtasida gemblinning psixologik omillari va oqibatlarini 1986 Melibayeva Ro'zaxon Nasirovna</p> <p>Maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki muloqot madaniyatini rivojlantirishda ertakterapiyaning ahamiyati..... 1990 Murodova Farangis G'anisherovna</p> <p>Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integratsiyalashgan mashg'ulotlar jarayonida bolalarning kommunikativ nutqlarini rivojlantirishning asosiy tamoyillari 1994 Muxtorova Moxiraxon Ma'rufjon qizi</p> <p>Bo'lajak tarix o'qituvchilarini muzey pedagogikasi vositasi orqali tarixiy tafakkurini rivojlantirishning modeli 1997 Niyozov Javlonbek Jaxongir o'g'li</p> <p>Ingliz tilini o'rgatishda interogativ vositalarning "MYTBT" moduli orqali ifodalanishi 2003 Normamatova Dilfuza Turdikulovna</p> <p>Biologiya darslarida ekologik ekskursiyalarni tashkil etishning amaldagi holati 2008 Quldosheva Dilso'z Sunnatovna</p> <p>Maktabgacha 6–7 yosh bolalarda jismoniy rivojlantirish va madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni shakllantirish..... 2011 Romanova Lola Karimbayevna</p> <p>Maktabgacha yoshdagi bolalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatishda TRIZ texnologiyasidan foydalanish..... 2014 Rustamova Gulmira Yoryigit qizi</p> <p>Ikkinchi tilni o'rganishda "Chaynovord" metodini qo'llashning afzalliklari va kamchiliklari 2018 Sadinov Oybek Ziyot o'g'li</p> <p>Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali pedagoglarning kreativligini rivojlantirish 2021 Saydullayeva Gulasal Umidjon qizi</p> <p>Ish beruvchilar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan loyiha topshiriqlari asosida ESP kurslarini amaliyotga yo'naltirish va talabalarning kasbiy ingliz tili kompetensiyalarini shakllantirish 2024 Shermuxevedova Dilnozaxon Raximiddjanovna</p> <p>Raqamli ta'lim muhitida o'quv resurslarini yaratishning raqamli-didaktik mazmunini rivojlantirish metodikasi 2028 Shirinov Feruzjon Shuxratovich</p> <p>Og'ir atletikachilarning boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida portlovchi kuchni rivojlantirish samaradorligi 2031 Tojimatov Oybekjon Dilmurodjon o'g'li</p> <p>Maktabgacha ta'lim tashkilotida STEAM xalqaro dasturini qo'llash metodikasi 2034 Tojiyeva Iroda Sadatovna, Shoimov Anvar Mamarizayevich</p> <p>Interfaol metodlardan foydalanib matematika darslari samaradorligini oshirish 2039 Toshboyeva Saidaxon Rahmonberdiyevna, Nishonova Shahnozaxon Ro'zali qizi</p> <p>Maktabda fizika darslarida ekologik mazmundagi masalalardan foydalanish 2043 Tursunov Alisher Isoqovich, Erniyazova Shaxnoza Xurram qizi</p> <p>Taniqli kimyogar olimlarning ijodiy faoliyatini o'rgatish metodikasi 2046 Ubaydullayeva Navruza Ne'matovna</p> <p>Muhandislik kompetensiyalariga ega zamonaviy texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash 2050 Umarov Abdurasul Abduraximovich</p> <p>Talabalarda mediasavodxonlik fani asosida konseptual tahlil kompetensiyalarini takomillashtirish metodikasi..... 2058 Umarov Xusanboy Rustamovich</p> <p>Pedagogical-Psychological Features of Forming Research Competences..... 2062 Usmanova Nargiza Kudiratullayevna</p> <p>Qasddan badanga yengil shikast yetkazish jinoyatining ijtimoiy salbiy oqibatlarini (yuridik va ijtimoiy-falsafiy tahlil) 2065 Xaidarov Rahmatullo Ergashevich, Amirxo'jayev Shukurjon Qurbanovich</p> <p>Talabalar sog'lig'iga ta'sir qiluvchi zamonaviy raqamli texnologiyalar va ularni boshqarish tizimlari 2069 Xaqiqatbekov Zafarbek Shavkatbek o'g'li</p> <p>Tez tibbiy yordam fanida stressni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishning integrativ-metodik modeli ... 2073 Xasanov Kamoliddin Ulug'bek o'g'li</p> <p>Talabalik davrida hayotiy qadriyatlar shakllanishining psixologik xususiyatlari 2080 Xayrullayeva Zebiniso Toxirovna</p>
-------------------------------	---



Informatsion-analitik kompetentlik iborasining pedagogika va falsafa fanlari misolida konseptual tadqiqi..	2085
Xolmatova Elnura Sherali qizi	
Emotsional intellekt rivojlanishida ijtimoiy muhitning psixologik ahamiyati	2088
Xudoyqulova Shoira Husanovna	
Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar asosida dars samaradorligini oshirish metodikasi	2091
Xurramova Mehriniso Shamsiddin qizi	
The Adaptation Characteristics of the Movement Analyzer are Influenced by Physical Exercise	2094
Yoldasheva Roila Jumaevna, Fayziyeva Kibriyo Tuvlanovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda faol fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish	2098
Yoldasheva Dilshoda To'lqinovna	
Geometrik isbotlashlarni o'rgatishda dasturiy vositalardan foydalanishning innovatsion yondashuvlari	2102
Yunusova Dilfuza Ismailovna, Toxirova Malika Muzaffar qizi	
ESP (maxsus maqsadlar uchun ingliz tili) dasturlarida vazifaga yo'naltirilgan biznes kommunikatsiyasi orqali oliy ta'limni mehnat bozori talablariga moslashtirish	2106
Yunusova Feruzaxon Xodjiakbarovna	
Genderga oid qarashlarning pedagogik bilimlar strukturasiidagi ahamiyati	2109
Yunusova Xolidaxon To'lqinjon qizi	
Integrativ yondashuv orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kritik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali didaktik mexanizmlari	2113
Zokirova Ma'suma Qahramonjon qizi	
Ta'lim klasterlarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish	2116
Badalova Maqsuda Umarovna	
Malakali kurashchilarda gavda-bel va qo'l-panja mushaklarining absolyut maksimal kuchini bir o'my davomida o'sish sur'ati	2119
Mirzanov Sherzod Sirliboyevich	
Технологии формирования коммуникативных навыков у детей раннего возраста	2123
Назарова Эльвира Наримановна	
Роль акмеологического подхода в оценке качества профессиональной подготовки будущих учителей	2127
Шафига Тахирова	
Этимологические справки к словарным словам школьных учебников по русскому языку по традиционной системе обучения	2131
Эшанкулов Хамракул Маматкулович	

YO'L HARAKATI XAVFSIZLIGI VA UNI MAKTABGACHA TA'LIMDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINING ILMIY- METODOLOGIK ASOSLARI

Jumayev Yunus Rashidovich

MTTDMQTMOI "Maktabgacha ta'lim menejmenti"
kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yo'l harakati xavfsizligi va uning maktabgacha ta'limda o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatishning ilmiy–metodologik asoslari yoritilgan bo'lib, bolalarda xavfsiz xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishga doir ilmiy tushunchalar hamda amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: yo'l harakati xavfsizligi, maktabgacha ta'lim, ilmiy–metodologik asoslar, pedagogik yondashuv, xavfsiz xulq-atvor.

Abstract: This article provides a comprehensive overview of the scientific–methodological foundations of teaching road safety and its specific features in preschool education. It highlights scientific concepts, approaches to developing safe behavior in children, and offers practical recommendations.


Key words: road safety, preschool education, scientific–methodological foundations, pedagogical approach, safe behavior.

Аннотация: В статье представлен комплексный обзор научно–методических основ преподавания безопасности дорожного движения и её особенностей в дошкольном образовании. Раскрыты научные концепции, методы формирования безопасного поведения детей и представлены практические рекомендации.

Ключевые слова: безопасность дорожного движения, дошкольное образование, научно–методические основы, педагогический подход, безопасное поведение.

KIRISH

Insoniyatning rivojlanish tarixi "yo'l" bilan chambarchas bog'liq. Yo'l nafaqat transport vositalarining harakati, balki odamlarning hayotiy yo'nalishi, maqsad sari harakati, madaniy taraqqiyot va ijtimoiy aloqalar rivojining asosi sifatida qaraladi. Chunki "yo'l" bir qator inson faoliyatining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omil sifatida qaraladi va muayyan funksional vazifalarni bajaradi¹ (1.1-rasm):



1-rasm: Yo'lining kishilik jamiyatining turli jabhalarida funksional vazifalari

1 Сворцов О. Дороги как фактор экономического развития//dorogi-kak-faktor-ekonomicheskogo-razvitiya



Yo'ning iqtisodiy funksiyasi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, yo'l, ayniqsa avtomobil yo'li, iqtisodiy o'sishning samarali katalizatori bo'lib xizmat qilmoqda. Chunki birgina yo'l solig'idan tushadigan yillik byudjet o'rta davlatlar bo'yicha daromadi 5%ni, AQSHda 12% atrofida, Osiyoda 12,8%ni tashkil qilmoqda. O'zbekistonda bu ko'rsatkich undan kam bo'lmasa kerak, zero avtomobil yo'l solig'i avtoulovni sotib olganda, yoqilg'i tannaxida va jarimalar orqali undirib olinadi. Har qanday davlatda yo'l infratuzilmasi davlatning iqtisodiy ko'rsatkichini belgilovchi indikator bo'lib hisoblaniladi. Chunki yo'l infratuzilmasini rivojlantirish davlatlararo va ichki savdoni ko'paytirish, kichik va o'rta biznesni jonlantirish, tovarlar narxini pasaytirishga ham qaratilgan.

Yo'ning ijtimoiy funksiyasi – yo'llarning ijtimoiy vazifasi odamlar va transport vositalarining erkin harakatlanishini ta'minlashdan iborat bo'lib, bu mehnat, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniy va dam olish maskanlariga borishni osonlashtiradi, shuningdek hududlarni rivojlantirish va aholining hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. XXI asrda 2025-yilning fevral oyida "Chunsze" (Bahor bayrami)ni yaqin qarindoshlari va oila a'zolari bilan o'tkazish uchun 9 mlrd. mintaqalararo yo'lovchi qatnovini ta'minlab berishga tayyor turdi. Aholining aksariyati avtomobilda (7,2 mlrd.), 510 mln.dan ortiq kishi temir yo'l transportida, 90 mln. yo'lovchiga esa havo aviatsiyasi orqali xizmat ko'rsatishga tayyor turgan. Bayram kunlari temir yo'l transporti orqali 600 mln. aholiga xizmat ko'rsatish uchun chipta tayyorlab qo'yilgan.

2022-yil O'zbekistonda bayram kunlari 11 mln.dan ziyod aholi oilasi bilan yoki ichki turizm maqsadida safar qilgan. Buning uchun so'nggi yillarda 5 ta yangi xususiy aviakompaniya tashkil qilingan, aviatsiya parki 44 taga yetgan, haftalik aviaqatnovlar soni 46 tadan 78 taga, yo'lovchi oqimi esa 6,5 mingdan 10 mingtagacha ko'paygan. Lekin avtomobil va temir yo'l qatnovi uchun infratuzilma yetarli darajada emas, u aholining dam olishiga xizmat qila olmaydi, deb ta'kidladi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2025-yil 9-iyulda o'tkazilgan videoselektorda. Zero yo'llar aholi punktlari o'rtasidagi ijtimoiy aloqalarni kengaytirish imkoniyatini beradi, bu esa milliy integratsiyaga yordam beradi.

Yo'ning siyosiy funksiyasi – davlat, mintaqaviy va global miqyosda birlik va yaxlitlikni ta'minlash, hududlarni boshqarishga ko'maklashish, mudofaa hamda siyosiy o'ziga xoslikni shakllantirish va saqlash. Yo'llar qo'shinlarni ko'chirish, ma'muriy hamda xalqaro nazoratni amalga oshirish, davlatning turli qismlari o'rtasidagi ijtimoiy aloqalarni saqlash, birlik va barqarorlikka hissa qo'shish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bunga misol sifatida O'zbekiston Respublikasining Qirg'iziston Respublikasida joylashgan Sox va Shohimardon anklavini rivojlantirishda O'zbekiston – Qirg'iziston o'rtasidagi siyosiy barqarorlikning naqadar muhimligini ko'rsatish mumkin. Shuning uchun ham 2023-yil 28-yanvarda Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Sadir Japarov hududlarda yo'l transportidan foydalanishni yengillashtirish orqali siyosiy barqarorlikni ta'minlashga kelishib oldi.

Yo'ning xavfsizlik funksiyasi – yo'l harakati bilan bog'liq xavfsizlik qoidalari, yo'l-transport hodisalarining oldini olish va ularning oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan keng ko'lamlı tadbirlarni o'z ichiga oladi: yo'l infratuzilmasi va haydovchilarni tayyorlash darajasini yaxshilash, avtomobil xavfsizligini ta'minlash, yo'ldan foydalanuvchilarni tayyorlash. Keng ma'noda yo'l xavfsizlik funksiyasi quyidagilardan iborat:

1. Yo'l infratuzilmasining xavfsizligini ta'minlash:

- yo'llarni loyihalash va qurishda xavfsizlik standartlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- yo'llarning geometrik parametrlari va chorrahalarini tartibga solish;
- yo'l belgilari va ko'rsatkichlarini o'rnatish;
- yo'ning to'g'ri holatini ta'minlash, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish;
- qishki silliqlikka qarshi kurashish;
- chorrahalar va piyodalar o'tish joylarida xavfsiz harakatni tashkil etish;
- svetoforlar va boshqa boshqaruv vositalarini o'rnatish.

2. Avtomobil xavfsizligini yaxshilash:

- avtotransport vositalarining dizayni va texnik holati, faol va passiv xavfsizlik tizimlariga (xavfsizlik kamarlari, xavfsizlik yostiqchalari va boshqalar) qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;
- transport vositalariga to'g'ri xizmat ko'rsatishni ta'minlash;
- haydovchilar uchun tezlikni va hushyorlikni kuzatish tizimlarini joriy etish.

3. Yo'l foydalanuvchilarini tayyorlash va o'qitish:

- haydovchilarni tayyorlash, nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish, malaka imtihonlarini tashkil etish;
- yo'l harakati qoidalari bo'yicha aholining xabardorligini oshirish;
- xavfsiz xatti-harakatlarni targ'ib qilish, shu jumladan xavfsizlik kamaridan foydalanish, tezlikka rioya qilish, spirtli ichimlik ta'siri ostida transport boshqarishning oldini olish.

4. Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta'minlash:

- yo'l-transport hodisalari sodir bo'lganda qutqaruv ishlarini tashkil etish, tibbiy yordam ko'rsatish;
- favqulodda vaziyatlar rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- hodisalarga o'z vaqtida javob berish.

5. Qonunchilik va normativ tartibga solish

- yo'l harakati xavfsizligi talablarini belgilovchi qonunlar va qoidalarni qabul qilish;
- ularga rioya etilishini nazorat qilish; buzilishlar uchun javobgarlik tizimini joriy etish;
- yo'l xavfsizligi bo'yicha chora-tadbirlar samaradorligini baholash.

Umuman olganda, yo'l harakati xavfsizligi funksiyalari barcha yo'l foydalanuvchilari uchun xavfsiz sharoit yaratishga, baxtsiz hodisalar ehtimolini kamaytirishga va ularning oqibatlarini yumshatishga qaratilgan tizimdir.

Yo'ning ma'naviy–ma'rifiy funksiyasi – kishini hayotga, jumladan mehnatga tayyorlashda yo'ning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va xavfsizlikka doir funksiyalari bo'yicha ta'lim–tarbiya berishdir. Yo'ning ma'rifiy funksiyasi tizimlashtirilgan, rasmiy va muddatli ta'lim jarayoni orqali bilim, ko'nikma va malakani shakllantirishni nazarda tutadi. Yo'ning ma'naviy funksiyasi esa shaxsda yo'ning funksional vazifalariga nisbatan to'g'ri tarbiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi 2020-yil 23-sentyabrdagi yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasiga muvofiq yo'l harakati bo'yicha milliy ta'lim tizimi quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta'lim va tarbiya;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim; professional ta'lim;
- oliy ta'lim;
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta'lim bosqichlari.

Ularning barchasi yagona uzluksiz va uzviy ta'lim tizimini tashkil etadi.

Yo'lga doir an'anaviy ta'lim rasmiylashtirilgan bo'lib, davlat talablari va standartlari, ulardan kelib chiqqan o'quv–me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Milliy ta'lim turlarida yo'lga doir ma'rifiy talablar belgilangan muddatlarda beriladi. Tegishli ta'lim yo'nalishidagi mashg'ulotlar yo'ning funksional vazifalariga mos mazmun va mohiyatga ega bo'lishi shart.

Milliy Ta'lim qonuniga binoan, yo'ning ma'rifiy va ma'naviy funksiyalari maktabgacha ta'lim tarbiya mazmuniga kiritilgan. Biroq bunday tarbiya avvalo oiladan boshlanadi va shaxsning butun umri davomida davom etadi. Chunki yo'ning turi, shakli, mazmuni va mohiyati XXI asrning uchinchi o'n yilligi davomida jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Unda xavfsizlikni ta'minlash barcha yoshdagi shaxslarni tezkor o'zgarishlarga moslashtirishni talab qilmoqda.

Yo'ni davlat, jamiyat va xalqaro hamjamiyatning barqaror rivojlanishdagi o'rni va roli qanday bo'lishidan qat'i nazar, "yo'l" atamasiga turli adabiyotlarda turlicha ta'riflar berilgan (1.1-jadval).

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

1.1-rasmdan ko'rinib turibdiki, "yo'l" turli xil funksional vazifalarni bajaradi. Lekin adabiyot va normativ-huquqiy manbalarda yo'lga berilgan ta'riflar turlicha (1.1-jadval). Masalan, davlat ilmiy nashri bo'lgan O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida "yo'l" atamasiga umuman ta'rif berilmagan. Internet tarmog'idagi "Wikipedia" va "Google.com"da esa harakat qatnovini amalga oshirish nuqtayi nazardan bitta ta'rif bilan cheklanib qolingan. Faylasuf olimlar G'. Yo'ldoshev va M. Teshaevar yo'lga "insonning hayotdagi tanlovi, maqsad sari harakati, yo'nalishdagi harakatlarining falsafiy talqini sifatida qaraladi", deb ta'riflagan. Avtotransport muhandislari Q. Xudoyberganov va B. Sobirovlar yo'lni faqatgina "harakat xavfsizligi va transportning uzluksizligini ta'minlaydigan maxsus muhandislik inshooti" deb muhandislik nuqtayi nazardan ta'riflaganlar. Umuman olganda, har bir olim yoki mutaxassis o'zining tor yo'nalishidagi atama sifatida bayon etgan.


1.1-jadval: Adabiyotlar va normativ hujjatlarda “Yo’l” atamasiga berilgan ta’riflar

Ta’rif	Manba
“Yo’l” atamasiga izoh berilmagan	O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-jild. “Y” harfi.– T. “O‘ME” DIN, 2013
Yo’l: – odamlar, jonivorlar va boshqalar narsalar qatnovi natijasida yer sathida iz bosilib hosil bo‘lgan uzun, davomli qism, qatnov qismi; – umuman, kishilar yoki transport qatnovi uchun maxsus belgilangan yer bo‘lagi; – kema yoki samolyotlar qatnashi uchun maxsus belgilanib qo‘yilgan yo‘nalish; – yo‘nalishdagi harakat jarayoni, yo‘lda davom etayotgan yurish; – yurish, qatnov yo‘nalishi; – biror-joy, makonga sayohat yoki boshqa maqsadda qilinadigan yurish; – bosib o‘tiladigan oraliq masofa; – ma’lum bir transport vositasi uchun yo‘nalish qurilmasi.	O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild.– T. “O‘ME” DIN, 2020.– 276-277-b.
Yo’l: – harakat uchun mo‘ljallangan yer chizig‘i, aloqa usuli. asfaltlangan, avtomagistral, asfaltlanmagan, mamlakat yo‘li; – yurish yoki haydash joyi, boradigan marshrut; – sayohat; yo‘lda yurish vaqti.	Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Дорога. Толковый словарь русского языка.– Москва: “Азъ”, 1992.– С. 474.
Yo’l – transport vositalarining harakatlanishi uchun qurilgan yoki moslashtirilgan va foydalaniladigan er polosasi yoxud sun‘iy inshoot yuzasi. Yo’l avtomobil yo‘llarini, shahar elektr transporti yo‘llarini va yo‘lkalarni o‘z ichiga oladi.	Yo’l harakati to‘g‘risida O‘R qonuni. 19.01.2024.
Yo’l - transport vositalarining harakatlanish’ uchun jihozlangan yoki moslashtirilgan va foydalaniladigan yer uchastkasi yoki sun‘iy inshootning yuzasi (u bir yoki bir nechta qatnov qismlarini, shuningdek, tramvay yo‘llari, trotuarlar, elkalar va agar mavjud bo‘lsa, ajratuvchi chiziqlarni o‘z ichiga oladi).	Doroga. https://www.google.com/search .
Yo’l - bu davlat transport (yo‘l) infratuzilmasining asosiy qismi bo‘lgan odamlar, chorva mollari va transport vositalarining harakatlanish yo‘li.	Doroga. https://ru.wikipedia.org/wiki .
Yo‘llar – transport vositalari va piyodalar harakatlanishi uchun mo‘ljallangan er sirtidagi maxsus tayyorlangan qismlar; yo‘lovchilar va yuklarni tashiydigan yuk ko‘taris‘h-tas‘his‘h ins‘hootlari (masalan, kanat yo‘l).	Yo‘llar. https://qomus.info/encyclopedia/cat-y/yollar-uz .
Yo’l – harakat xavfsizligi va transportning uzluksizligini ta‘minlaydigan maxsus muhandislik ins‘hootidir.	Xudoyberganov Q., Sobirov B. – T.: “Fan va texnologiya”, 2019
Yo’l – insonning hayotdagi tanlovi, maqsad sari harakati, yo‘nalishdagi harakatlarining falsafiy talqini sifatida qaraladi.	Yo‘ldoshev G‘., Teshayev M. Falsafa asoslari.– T., 2017.

Faqatgina O‘zbek tilining izohli lug‘atida “yo’l” atamasiga 16 ta variantdagi izoh berilgan bo‘lib, uning 7 tasi bevosita tadqiqot yo‘nalishimizga to‘g‘ri keladigan ta’riflardir. Chunki yo’l turli millat tillarida juda keng qo‘llaniladigan va turli ma’nolarni anglatuvchi so‘zdir. Rus tilining eng ko‘p fanda ishlatiladigan S. I. Ojegov va N. Yu. Shvedovalarning izohli lug‘atida “yo’l”ga 4 xil variantdagi ta’rif berilgan bo‘lib, ularning 3 tasi bevosita transport yo‘llariga tegishlidir.

19-yanvar 2024-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Yo’l harakati to‘g‘risida”gi qonunda “yo’l – transport vositalarining harakatlanishi uchun qurilgan yoki moslashtirilgan va foydalaniladigan yer polosasi yoxud sun‘iy inshoot yuzasi” degan ta’rifda faqatgina avtomobil va shahar elektr transporti yo‘llari hamda yo‘lkalar kiritilgan, xolos.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, “yo’l” atamasi o‘zbek tilida juda keng ma’noli tushuncha bo‘lib, u harakat xavfsizligi nuqtayi nazardan o‘z tarkibiga bir qator turlarni qamrab oladi (1.2-rasm). “Yo’l” atamasiga ta’rif berilganda mazkur tasniflagichdan kelib chiqqan tarzda quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- barcha turdagi xavfsizlik harakatlarini qamrab olishi;
- o‘ziga xos xavfsizlik mezonlariga ega bo‘lishi;
- harakatlanish qoidalarining o‘ziga xosligi.

“Yo’l” – aholi va yuklarni transportirovka qilishning barcha turlarini qamrab oluvchi va o‘ziga harakat hamda xavfsizlik talablariga javob beruvchi sun‘iy ravishda tashkil etilgan yo‘nalish vositasi.

Harakat nima, degan o‘rinli savol tug‘iladi. “Yo’l” atamasi kabi “harakat” so‘ziga ham turlicha ta’rif berilgan. Masalan, davlat ilmiy nashri bo‘lgan O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida “harakat”ga aniq bir ta’rif berilmagan,

uni faylasuflar tili bilan “o'zgaruvchanlik” ma'nosida ishlatilgan. Internet tarmog'idagi “Wikipedia”da umumiy shaklda har bir o'zgarish va o'zgarishni o'z ichiga olgan tushuncha sifatida qaralgan².

O'zbekiston Respublikasi “Yo'l harakati to'g'risida”gi qonunda harakat alohida bir tushuncha sifatida qaralgan. Unda “yo'l harakati – yo'l harakatini tashkil etishda yo'llar doirasida transport vositalari va yo'l harakati ishtirokchilari ishtirokida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar majmui”, deb berilgan. O'zbek tilining izohli lug'atida “harakat” atamasiga 11 xil izohning 4 tasi bevosita tadqiqot yo'nalishimizga to'g'ri keladigan ta'riflardir. Masalan, harakat:

- kishi va narsalarning yoki ularning qismlarining tinch holatdan chiqishi, qo'zg'alishi, qimirlashi va shu kabilar (tinch holatga qarama-qarshi holat);
- ishni bajarishda faoliyatning holati, bajaruvchining faoliyat tarzi, yo'sini;
- biror ishga kirishish, biror narsa qilishga urinish, intilish, tirishish;
- makonda biror yo'nalish bo'yicha bo'ladigan siljish, yurish va boshqalar.

Chunki “harakat” atamasi ham turli millat tillarida juda keng qo'llaniladigan va turli ma'nolarni anglatuvchi so'zdir. Rus tilining eng ko'p fanda ishlatiladigan S. I. Ojegov va N. Yu. Shvedovalarning izohli lug'atida “harakat”ga 9 xil variantdagi ta'rif berilgan bo'lib, ularning 1 tasi bevosita transport yo'llariga tegishlidir. Unda harakat – “yo'l harakati qoidalari” deb aytilgan, xolos.

Shunday qilib, yuqorida tahlil qilingan ta'riflardan kelib chiqqan tarzda harakat – biron bir faoliyatni amalga oshirishda kishi va narsalarning real voqealardagi holati, deyish mumkin.

Harakatsizlik esa – belgilangan yoki tavsiya etilgan harakatlarni qilmaslikdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi ushbu mavzu doirasida maktabgacha ta'lim muassasalarida yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha berilayotgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish jarayonini empirik o'rganishga qaratildi. Ma'lumotlar asosan kuzatish, pedagogik diagnostika, o'quv mashg'ulotlarini tahlil qilish hamda tarbiyachilar va ota-onalar bilan o'tkazilgan suhbatlar orqali yig'ildi. Kuzatish jarayonida bolalarning yo'l belgilarini tanishi, xavfsiz harakat qoidalari amal qilishi va real vaziyatlarda xulq-atvorini baholashga e'tibor qaratildi. Shuningdek, mavzuga oid dars ishlanmalari, metodik qo'llanmalar va amaldagi normativ hujjatlar kontent tahlili orqali o'rganildi. Olingan sifat va miqdoriy ma'lumotlar taqqoslash, mazmuniy tahlil va pedagogik diagnostika mezonlari asosida qayta ishlanib, yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha samarali metodik yondashuvlarning mavjud holati va rivojlanish ehtiyojlari aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Adabiyotlarda xavf, tavakkalchilik (risk), xavfsizlik tushunchalari muayyan bir vaziyatni ifodalash maqsadida ishlatiladi. Masalan, xavf – ichki yoki tashqi omillar ta'sirida obyekt yoki subyektning dinamikasi, rivojlaniishi jarayoni va xususiyatlariga zarar yetkazuvchi faoliyat yoki holat (A. A. Sergunin, 2003). Tavakkalchilik esa oldindan rejalashtirilmagan va to'satdan sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavfdir. Lekin xavf va tavakkalchilik rejalashtirilgan tarzda oldini olish yoki rejalashtirilmagan tarzda esa sodir bo'lgandan keyin tartibga solish mumkin. Kishilarning noqulay muhitga moslashishi fanda adaptatsiya deb ataladi.

Xavfsizlik: L. Yu. Xotunsevning (2002) fikricha, – alohida shaxs, jamiyat va tabiat obyektlarini kuchli darajadagi xavf-xatardan himoyalanganlik darajasi bo'lib, uning asosiy mezoni – kelajakda yoki hozirda sodir bo'luvchi tabiiy yoki ijtimoiy xatardan kelib chiquvchi qo'rquv hissi. Bu tushunchaga K. Ya. Kondratyevlar (1993) va T. Aroshidze (1994) xavfsizlik keng ma'noda hayot, salomatlik, insoniyatning asosiy huquqlari, hayotiy manfaatlarini ta'minlovchi manbalar, ijtimoiy tartibdagi resurslar bilan bog'liq xavflarga moslashish darajasi, deb ta'rif beradilar. V. N. Burkov va A. V. Shepkinlarning (2003) fikricha, xavfsizlik nazariyasi zamonaviy, o'zaro tartibli fan yo'nalishi bo'lib, insoniyat, jamiyat, davlatning hayotiy zarur manfaatlarini texnogen va tabiiy favqulodda holatlardan himoyalanganlik darajasi.

Birinchidan, xavfsizlik keng ma'noli tushuncha bo'lib, u nafaqat shaxs, to'g'rirog'i inson (shaxs yuridik kategoriyaga tegishlidir), jamiyat va davlat, balki tabiat va uning elementlari nuqtayi nazaridan ham qaralishi mumkin. Chunki xavfsizlik nafaqat insonlar, balki barcha tirik mavjudotlar o'rtasidagi va ularning atrof-muhiti bilan bo'ladigan munosabatlarni qamrab oladi. Vaholanki, xavfsizlik tushunchasi “bexatar yashash darajasi”ni ifoda etar ekan, u ma'lum bir ma'noda har qanday organizmlarning ham bexatar yashashi nuqtayi nazaridan

² Harakat. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 11-jild.– T. “O'ME” DIN, 2020.– 302-303-b.



qaralishi lozim. Negaki hozirgi kunga kelib tirik mavjudotlarning bexatar yashashi bevosita yoki bilvosita tarzda insoniyatga bog'liq bo'lib qolmoqda.


Ikkinchidan, xavfsizlik nafaqat texnogen yoki tabiiy favqulodda holatlar va jarayonlardan organizmlarning saqlanganlik darajasi, balki u ko'zga ko'rinmas hamda bilvosita ta'sir etuvchi hodisa va jarayonlar orqali sekin-asta yuzaga kelishi ham mumkin. Masalan, tabiat ofatlari tufayli yo'l harakati xavflarining yuzaga kelishi. Albatta, bunday xavfsizlik tabiiy xarakterdagi xavfsizlikka kiradi. Lekin u ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy–ma'rifiy va shu kabi xarakterlarga ega ham bo'lishi mumkin. Xavfsizlik so'zini xarakteriga qarab qo'shimcha, to'ldiruvchi va aniqlovchi so'z yoki so'z birikmalari bilan ishlatilishi maqsadga muvofiqdir. Masalan: avtotransportdagi xavfsizlik yoki suv transportidagi xavfsizlik, temir yo'l transportidagi xavfsizlik va h.k.

Uchinchidan, xavfsizlikni ta'minlashda tavakkalchilikni e'tiborga olish, uning darajasini aniqlash va boshqarish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki kishilik jamiyati faoliyati qanday yuqori texnologik va ehtiyotkorlik darajasida amalga oshirilmasin, baribir u muayyan bir tavakkalchilik darajasiga egadir. Masalan, texnogen yoki tabiat hodisalarining yuzaga kelishi natijasida yo'l harakati xavfsizligining keskin o'zgarishi.

Shularni hisobga olgan holda xavfsizlikni – organizmlar (jumladan inson), ularning jamoasi, muayyan davlat va ularni o'rab turuvchi muhitning turli darajadagi evolyutsion yoki noevolyutsion (favqulodda) sodir bo'luvchi xavf-xatardan, tavakkalchilikni inobatga olgan tarzda himoyalanganlik holati, deb ta'riflash mumkin.

Xavfsizlik turli sohalarda, xususan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ekologik va texnologik sohalarda ko'rsatilgan muhim ahamiyatga ega. U har qanday xavflar, xatarlar va oqibatlardan insonlarni himoya qilish, barqaror va xavfsiz muhit yaratishga xizmat qiladi. Yuqorida bayon etilgan atama va so'zlarning ta'rifidan kelib chiqqan tarzda yo'l harakati xavfsizligi, keng ma'noda – aholi va yuklarni transportirovka qilishning barcha turlarini qamrab oluvchi o'ziga xos faoliyatni amalga oshirishda kishi va narsalarning real voqelikdagi evolyutsion yoki noevolyutsion (favqulodda) tarzda tavakkalchilikni inobatga oluvchi xavf-xatardan himoyalanganlik holatidir.

Yo'l harakati xavfsizligi, tor ma'noda – aholi va yuklarni transportirovka qilishning o'ziga xos harakat hamda xavfsizlik talablariga javob beruvchi holat.



1.2-rasm: “Yo'l”ning transport vositasi sifatida xavfsizlik ko'rsatkichlari farq qilishi bo'yicha tasniflanishi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, “yo’l” kishilik jamiyatining faoliyat yo’nalishida muhim iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, xavfsizlik hamda ma’rifiy-ma’naviy funksiyalarni bajaradi. Shuning uchun ham davlat va jamiyatning barqaror rivojlanishida yo’l tizimini mazkur funksiyalar asosida 5 turga ajratgan holda o’rganish va ularga mos tarzda harakat xavfsizligini ta’minlash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Yo’l harakati xavfsizligini ta’minlash nafaqat transport sohasida barqarorlikni mustahkamlaydi, balki aholining hayot sifati, hududlar o’rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar va umumiy milliy xavfsizlikka ham bevosita ta’sir ko’rsatadi.

Mazkur tadqiqot natijalari yo’l harakati xavfsizligiga oid tushunchalarning keng qamrovli mazmunini aniqlash, xavf, xavfsizlik va tavakkalchilik o’rtasidagi o’zaro bog’liqlikni yoritish, shuningdek, yo’l atamasiga berilgan turli ilmiy ta’riflarning tizimlashtirilgan tahlilini taqdim etadi. Ushbu xulosalar maktabgacha ta’lim jaryonida yo’l harakati xavfsizligini shakllantirishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish uchun ham muhim nazariy poydevor bo’lib xizmat qiladi.

Takliflar:

1. “Yo’l harakati xavfsizligi” tushunchasini maktabgacha ta’lim dasturlarining barcha yo’nalishlariga integratsiya qilish, bolalarda xavfsiz xulq-atvor kompetensiyalarini shakllantirish.
2. Adabiyotlardagi “yo’l”, “harakat”, “xavf”, “tavakkalchilik” tushunchalari bo’yicha yagona ilmiy-metodik tasnif yaratish.
3. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun yoshga mos, vizual va samaradorligi isbotlangan yo’l harakati bo’yicha o’quv-metodik materiallar ishlab chiqish.
4. Pedagoglar uchun muntazam ravishda yo’l harakati xavfsizligi bo’yicha qisqa muddatli malaka oshirish kurslarini tashkil etish.
5. Yo’l harakati madaniyatini oshirishda ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish, ular uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Skvortsov O. Dorogi kak faktor ekonomicheskogo razvitiya. // dorogi-kak-faktor-ekonomicheskogo-razvitiya.
2. Salimov B. L. va boshq. Sotsialnoye znachenije dorog i provodimiye raboti po dorozhnomu stroitelstvu. // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. www.oriens.uz, 2023. – S. 803–809.
3. Harakat. O’zbekiston milliy ensiklopediyasi. 11-jild. – T.: “O’ME” DIN, 2020. – 302–303-b.
4. Harakat. O’zbek tilining izohli lug’ati. 5-jild. – T.: “O’ME” DIN, 2008. – 506–507-b.
5. Medeu A. (2002).
6. Adaptatsiya. O’zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.: “O’zME” nashriyoti, 1-jild.
7. Nigmatov A. N. Yo’l harakati qoidalari (ertalabki davra suhbat). 2022.
8. O’zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-jild. “Y” harfi. – T.: “O’ME” DIN, 2013.
9. O’zbek tilining izohli lug’ati. 2-jild. – T.: “O’ME” DIN, 2020. – 276–277-b.
10. Ojegov S. I., Shvedova N. Yu. Doroga. Tolkoviy slovar russkogo yazika. – Moskva: “Azъ”, 1992. – S. 474.
11. Yo’l harakati to’g’risida O’zbekiston Respublikasi qonuni. 19.01.2024.
12. Doroga. <https://www.google.com/search>
13. Doroga. <https://ru.wikipedia.org/wiki>
14. Yo’llar. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-y/yollar-uz>
15. Xudoyberganov Q., Sobirov B. – T.: “Fan va texnologiya”, 2019.
16. Yo’ldoshev G’, Teshayev M. Falsafa asoslari. – T., 2017.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.